



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3591

ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

SHARQ TIBBIYOT VA TABIIY FANLAR
JURNALI

Scientific Journal



- Medicine
- Pharmaceuticals
- Biology
- Chemistry
- Geology
- Agriculture



+998 33 5668868



www.innoworld.net



ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES

Volume 2, Issue 4
2025


Journal has been listed in different indexings



The official website of the journal:

www.innoworld.net

O'zbekiston-2025



IJTIMOYIY TARMOQLARDA O'LCHOV BIRLIKLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Muzaffarova Ruxshona Bobomurod qizi

Buxoro Davlat Universiteti 6-1 KL-25 guruh talabasi

Muzaffarovaruxshona705@gmail.com

Telefon raqam: +998954700721

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi o'lchov birliklarining tarixiy va zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimiy o'lchov birliklari - qarich, tutam, gaz, enlik, misqol, pud kabi birliklarning xalq hayoti, madaniyati va dunyoqarashi bilan bog'liqligi o'rganiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar tilida shakllanayotgan zamonaviy o'lchov birliklari - layk, follovchi, "1k", "1M", ko'rish soni kabi birliklarning semantik va kommunikativ xususiyatlari tahlil etiladi. Maqolada an'anaviy va raqamli o'lchov birliklari o'rtasidagi o'xshashlik farqlar qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Abstract: This article analyzes the historical and modern interpretations of units of measurement in the Uzbek language. The study examines the connection between ancient units of measurement - such as the yardstick, tutam, gaz, latitude, mithqal, and pud - with the life, culture, and worldview of the people. At the same time, the semantic and communicative properties of modern units of measurement that are being formed in the language of social networks - such as like, follower, "1k", "1M", and number of views - are analyzed. The article highlights the similarities and differences between traditional and digital units of measurement based on a comparative analysis.

Аннотация: В статье анализируются исторические и современные интерпретации единиц измерения в узбекском языке. В исследовании рассматривается связь древних единиц измерения, таких как аршин, тутам, газ, широта, мискаль, pud, с жизнью, культурой и мировоззрением народа. Одновременно анализируются семантические и коммуникативные свойства современных единиц измерения, формируемых в языке социальных сетей, таких как лайк, подписчик, «1k», «1M», количество просмотров. На основе сравнительного анализа выявляются сходства и различия традиционных и цифровых единиц измерения.

Kalit so'zlar: o'lchov birliklari, ijtimoiy tarmoqlar, lingvistik xususiyat, semantika, kommunikativ birlik, raqamli madaniyat.

Keywords: units of measurement, social networks, linguistic feature, semantics, communicative unit, digital culture.

Ключевые слова: единицы измерения, социальные сети, языковой признак, семантика, коммуникативная единица, цифровая культура

Kirish.

Til-xalq tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayotining eng muhim ko'zgusidir. Har bir tilda insonning dunyoni idrok etish, uni o'lchash va ifodalash usullari aks etadi. Shu jihatdan o'lchov birliklari nafaqat miqdorni belgilovchi, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va turmush tarzini ifodalovchi leksik birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida qarich, tutam, gaz, enlik, misqol, pud kabi o'lchov birliklari qadimdan mavjud bo'lib, ular xalqning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'langan.

Bugungi globallashuv va raqamli madaniyat davrida esa o'lchov birliklari tushunchasi yangi semantik qatlam bilan boyimoqda. Ijtimoiy tarmoqlar tilida "1k", "1M", layk, follovchi, ko'rish soni kabi birliklar zamonaviy "Ijtimoiy o'lchov" sifatida shakllandi. Ushbu birliklar inson faoliyatining raqamli ko'rinishini, ya'ni mashhurlik, ta'sirchanlik va ijtimoiy faollik darajasini ifodalaydi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan bu hodisa o'lchov birliklarining semantik kengayishini ko'rsatadi. Endilikda o'lchov birliklari nafaqat jismoniy miqdorni, balki ijtimoiy-virtual maydondagi faoliyatni ham ifodalamoqda. Bu esa o'zbek tili tizimida yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligida o'lchov birliklari tilning leksik-semantik tizimida muhim o'rin tutadi. Olimlar bu birliklarni xalqning moddiy va ma'naviy tajribasini ifodalovchi til birliklari sifatida baholaydilar. "Qarich"- qo'lning bosh barmog'i bilan ko'rsatgich barmog'i orasidagi masofa [1], "gaz" esa kiyim-kechak o'lchoviga oid qadimiy birlik sifatida shakllangan. Bu o'lchov birliklari keyinchalik tildagi miqdor, hajm, uzunlik tushunchalarini ifodalovchi leksik birliklarga aylangan. [2]

O'lchov birliklari o'zbek tilining leksik-semantik tizimida mustaqil guruhni tashkil etadi. Ular faqat miqdorni emas, balki nisbat, solishtirish, ko'chma ma'no kabi semantik qatlamlarni ham ifodalaydi. Masalan: "Bir qarich bo'yli bola"-bu yerda "qarich" so'zi nafaqat o'lchov, balki kichiklik, zaiflik ma'nosini ham beradi. O'lchov birliklari xalq tafakkuri, urf-odati va qadriyatlarini aks ettiradi. Bu birliklar nafaqat til elementlari, balki madaniy kod sifatida ham xizmat qiladi. [3] Masalan: "botmon"-qadimda savdo va og'irlik o'lchov birligi bo'lgan, hozir esa xalq orasida ko'p miqdor ma'nosida qo'llanadi ("botmonlab meva oldi").

O'lchov birliklarini o'zbek xalqining lingvomadaniy qadriyatlari tizimida o'rganib, ularning xalqning mehnat turlari, tabiat bilan munosabati va ijtimoiy muhitda tutgan o'rnini ochib beradi [4]. O'lchov birliklarini semantik tahlil orqali ularning nisbiy, miqdoriy va ko'chma ma'nolarini ajratadi [5]. Natijada, o'lchov birliklari o'zbek tilining dinamik, ko'p qatlamli tizimida nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy-madaniy mazmunni ham ifodalovchi vosita sifatida shakllangan.

Xulosa.

O'lchov birliklari o'zbek tilining qadimiy leksik qatlamini tashkil etib, xalq tafakkuri, mehnati va madaniyatining tildagi ifodasidir. Ularning ijtimoiy tarmoqlarda yangi shaklda qo'llanishi tilning rivojlanish jarayonida xalq tafakkuri va zamon talablari uyg'unlashib borayotganini ko'rsatadi. Shu sababdan, o'lchov birliklarini lingvistik, semantik va madaniy jihatdan chuqur o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev, M. O'zbek tili tarixiy leksikologiyasi .-Toshkent: Fan ,2004 . - B.97 - 113
2. Mamatov, N. O'zbek tilida o'lchov birliklarining shakllanishi va qo'llanishi . -Toshkent: Fan, 1990. - B.58 - 72
3. Jo'rayev, A. Til va madaniyat munosabati .-Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti ,2012. - B.66 - 80
4. Hasanov, B. O'zbek xalqining o'lchov tizimi va lingvomadaniy qadriyatlari. - Til va adabiyot jurnali, 2020 . - B.41-49
5. Qodirov, A. Leksik birliklarning semantik tahlili .-Samarqand : SamDU nashriyoti, 2018 .-B.45 - 53